

Andijon teleradiokomponiyasida institut talabalari “Mening innovasion loyiham” ko’rsatuvida ishtirok etdilar

“Andijon teleradiokomponiyasi”da institutimiz qoshidagi Texnologiyalar markazidagi “Yosh olimlar” to’garagining bir nechta a’zolari “Mening innovasion loyiham” dasturida ishtirok etdilar. Jumladan, EEE yo`nalishi 172-guruh talabasi Mirzaraximov Abdulaxat “Smart street light” loyihasi bilan, EEE yo`nalishi 172-guruh talabasi G`ulomov Mo`minjon “Ant blink” loyihasi va TJICHAB yo`nalishi 175-guruh talabalari Mamazulunov Qudratbek va Raximberdiyev Xurshidbeklar “Green House” issiqxona loyihalari bilan ishtirok etdilar. Ular loyihani yaratishdan maqsadi haqida gapirib berdilar va ularning ishlash jarayonini ko`rsatib berdilar. Talabalarimiz tomonidan tayyorlangan ushbu loyiha ishlanmalari ko`pchilikda katta qiziqish uyg`otdi.







